VI. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-hilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish

(2022- yil yanvar-mart)

	mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Jamiga nisbatan % da
Jami xizmatlar	**2 993,9**	**114,2**	**100,0**
shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha			
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	161,6	119,3	5,4
Moliyaviy xizmatlar	553,6	133,3	18,5
Transport xizmati	509,0	111,4	17,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	466,1	109,5	15,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	74,3	111,9	2,5
Savdo xizmatlari	952,6	109,3	31,8
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	75,6	109,6	2,5
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	126,7	101,7	4,2
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	67,2	113,7	2,3
Ijara va prokat xizmatlari	64,3	104,2	2,2
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	87,5	110,3	2,9
Boshqa shaxsiy xizmatlar	195,0	111,4	6,5
Me’morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlarva tahlil sohasidagi xizmatlar	33,2	103,0	1,1
Boshqa turdagi xizmatlar	93,3	115,0	3,1

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (31,8 %), moliyaviy xizmatlar (18,5 %) transport xizmatlari (17,0 %), tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,1 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (2,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,5 %) tashkil etgan.

2022- yil yanvar-mart oylarida bajarilgan xizmatlar tarkibi, *(% da)*



2022- yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 2 993,9 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 109,3 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 31,8 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 111,4 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 17,0 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar 133,3 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 18,5 % ni tashkil etdi.

Shaxsiy xizmatlar 131,2 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.

Aloqa axborotlashtirish xizmati 119,3 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar 101,7 % ga oshgan bo'lib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan xizmatlar tarkibi

(jami xajmga nisbatan, % da)



Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi

(2022- yil yanvar-mart, mlrd.so‘m)



Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi
(2022- yil yanvar-mart)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da	Ulushi % da	mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	**2 993,9**	**114,2**	**100,0**	**1 019,0**	**111,7**
Namangan sh.	1166,3	115,9	39,0	1 759,7	113,1
Mingbuloq	122,3	112,1	4,1	929,9	109,7
Kosonsoy	161,1	113,5	5,4	738,0	110,9
Namangan t.	165,3	113,2	5,5	897,7	110,8
Norin	139,7	115,2	4,7	823,6	113,0
Pop	207,1	112,9	6,9	910,6	110,7
To‘raqo‘rg‘on	195,4	111,7	6,5	834,2	109,0
Uychi	160,2	113,1	5,3	719,4	110,4
Uchqo‘rg‘on	165,2	113,3	5,5	925,6	111,0
Chortoq	173,6	112,2	5,8	840,6	110,1
Chust	188,4	114,6	6,3	684,8	112,4
Yangiqo‘rg‘on	149,3	113,3	5,0	657,0	110,9

Shahar va tumanlar kesimida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga
(2022- yil yanvar-mart, ming so‘m)



Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur’ati Norin tumaniga 139,7 mlrd. so‘m (115,2 %) va Chust tumanida 188,4 mlrd. so‘m (114,6 %)ga to‘g‘ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (1 759,7 ming so‘m), Mingbuloq tumanida (929,9 ming so‘m) va Pop tumanida (910,6 ming so‘m) qayd etildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, *mlrd. so‘m*



Eng yuqori o‘sish sur‘atlari moliyaviy xizmatlar (133,3 %), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (113,7 %), shahsiy xizmatlar (111,4 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o‘rinni avtomobil transportida ko‘rsatilgan xizmatlar (91,6 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy xajmining 8 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo‘yicha transport xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2022- yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 78,8 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 15,1 % ga yetdi.

2022- yil yanvar-mart oylarida transport turlari bo‘yicha transport xizmatlari tarkibi, *% da*



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste’mol talabi va savdo aylanmasi o‘smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarni qo‘shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,1 % ni egallaydi.